

№ 3 (19) 2026

ISSN 2181-1822

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



AXBOROTNOMASI

ILMIY-AMALIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY VA SIYOSIY-HUQUQIY JURNAL

**KUCH – BILIMDA,
SHARAF –
A'LO XIZMATDA!**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

AXBOROTNOMASI

№ 3 (19) 2026

Toshkent – 2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR
VAZIRLIGI MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



AXBOROTNOMASI

Ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy va
siyosiy-huquqiy jurnal

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida,
lotin, kirill yozuvida chop etiladi.
Maqolalarda keltirilgan iqtiboslar,
dalillar, raqamlar va ma'lumotlarning
aniqligi uchun muallif javobgardir.
Jurnaldan ko'chirib olingan manba
ko'rsatilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka
oshirish instituti Axborotnomasi O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 20-mayda №1630-sonli guvohnoma bilan
ro'yxatdan o'tgan.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasi O'zbekiston
Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
“Malaka oshirish institutining Axborotnomasi”
ilmiy-amaliy jurnali 2023-yil 15-iyunda
OAK Rayosatining 339/6-son hamda
2024-yil 28-iyundagi OAK Rayosatining 356/5-son
qarorlariga asosan yuridik va tarix, siyosiy va
falsafa, pedagogika va texnika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktorlari (DSc) ilmiy
darajasiga talabgorlarning dissertatsiya
ishlari asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qiladi.

Muassis:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI

Bosh muharrir:

Olimjon AXMEDOV

Nashr uchun mas'ul:

Bahodir JOVLIYEV

Jamoatchilik

Kengashi tarkibi:

Nuriddin NORMATOV
Bahodir MATLYUBOV
Diyorbek SATTAROV
Umidsbek NURULLAYEV

Hay'at a'zolari:

Olimjon AHMEDOV
Ulug'bek RASULEV
Karim NORMATOV
Jo'raboy TOSHQULOV
Farhod XATAMOV
Muzaffar TOJIBOYEV
Mehmonali SUVANQULOV
Erkinjon MARUPOV

Tahririyat:

Mas'ul muharrir:

Nargiza BERDIYEVA

Musahhih:

Nurafshon XATAMOVA

Sahifalovchi-dizayner:

Zafar RO'ZIYEV

Axborotnoma “Til va adabiyot” MCHJ
tahririyatida nashrga tayyorlandi.

Manzil: Toshkent shahar, Shayxontahur
tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Rasmiy sayt:

https://ipkmvd.uz/institut_axborotnoma/

Murojaat uchun: @Axborotnoma_IIV

Bosishga ruxsat etildi: 30.06.2026.

Buyurtma № 181

Qog'oz bichimi 60x84 1/32. Shartli b. t.-7,8.

Adadi 100 nusxada chop etildi.

100213, Toshkent shahar, Bektemir tumani,

H.Boygaro ko'chasi, 27a-uy.



MUNDARIJA

SIYOSIY FANLAR

Bahodir ULUGBEKOV.

IJTIMOYIY PROFILAKTIKA – JINOYATCHILIKKA
QARSHI SAMARALI QALQON 5

YURIDIK FANLAR

Nargiza MIRJALOLOVA.

АКСИОЛОГИК ЁНДАШУВ АСОСИДА
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИНИНГ
ТИББИЙ МАДАНИЯТИНИ
ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ 8

Мухтор АБДУРАХИМОВ.

ИНСОН ГЕНОМИГА ОИД АХБОРОТ ТУШУНЧАСИ
ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ ТАБИАТИ: МИЛЛИЙ ВА
ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ТАҲЛИЛИ 13

Zuxriddin MUXAMMADALIYEV.

YANGI O'ZBEKISTONDA "RAVON YO'L"
KONSEPSIYASI ASOSIDA YO'L-TRANSPORT
HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA
IDORALARARO HAMKORLIKNING
KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH 16

Ulug'bek MURTAZAYEV.

TOVAR BELGISI, FIRMA NOMI VA PATENT
HUQUQLARINI BUZGANLIK UCHUN JINOIY
JAVOBGARLIKNI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 19

PEDAGOGIKA FANLARI

F.B.MATYAKUBOVA.

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИНИ
ТАЙЙORLASHDA TA'LIM VA TARBIYA UYG'UNLIGI:
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR
VA TENDENSIYALAR..... 22



Bahodir ULUGBEKOV,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti Boshlig'i o'rinbosari –
Nukus filiali boshlig'i, Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

IJTIMOIY PROFILAKTIKA – JINOYATCHILIKKA QARSHI SAMARALI QALQON

Annotatsiya: ushbu maqolada ijtimoiy profilaktikaning jinoyatchilikning oldini olishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-sonli qaroriga muvofiq joriy etilgan "Ijtimoiy profilaktika haftaligi" mexanizmi asosiy e'tibor markazida bo'lib, uning maqsad va vazifalari, amaliy joriy etilish holati ko'rib chiqiladi. Maqolada so'nggi ikki kundagi jinoyatchilik ko'rsatkichlari (238 ta oldini olish mumkin bo'lgan jinoyat), profilaktika inspektorlarining xizmat uylari muammolari (1486 ta kamchilik), rahbarlarga biriktirilgan yoshlar bilan ishlashdagi sustkashlik (faqat 8,5 % muammolar hal etilgan) kabi dolzarb masalalar misollari orqali tahlil qilinadi. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar (Sempsonning kollektiv samaradorlik nazariyasi, Sharkining jamoatchilik tashkilotlari ta'siri) va milliy tajriba asosida ijtimoiy profilaktikaning samaradorligini oshirish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy profilaktika, jinoyatchilikning oldini olish, "Ijtimoiy profilaktika haftaligi", mahalla, kollektiv samaradorlik, profilaktika inspektorlari, xizmat uylari, yoshlar bilan ishlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, "Obod va xavfsiz mahalla".*

Annotation: this article analyzes the role and significance of social prevention in crime deterrence. The primary focus is on the "Social Prevention Week" initiative, introduced in accordance with Presidential Decree No. PQ-1 of the Republic of Uzbekistan, dated January 5, 2026. Its goals, objectives, and practical implementation are examined. The article analyzes pressing issues through specific examples, such as crime statistics from the last two days (238 preventable crimes), problems with service housing for prevention inspectors (1,486 deficiencies), and sluggishness in working with youth assigned to leaders (only 8.5% of issues resolved). Based on international academic research (Sampson's theory of collective efficacy, Sharkey's research on the impact of community organizations) and national experience, the article proposes ways to increase the effectiveness of social prevention.

Key words: *social prevention, crime prevention, "Social Prevention Week," mahalla, collective efficacy, prevention inspectors, service housing, youth engagement, delinquency prevention, "Prosperous and Safe Mahalla."*

Аннотация: в данной статье анализируется роль и значение социальной профилактики в предупреждении преступности. Основное внимание уделяется механизму "Неделя социальной профилактики," введенному в соответствии с Постановлением Президента Республики Узбекистан от 5 января 2024 года No ПП-1, а также рассматриваются его цели, задачи и состояние практической реализации. В статье на конкретных примерах анализируются такие актуальные вопросы, как показатели преступности за последние два дня (238 преступлений, которые можно было предотвратить), проблемы со служебным жильем инспекторов по профилактике (1486 недостатков), а также медлительность в работе с молодежью, закрепленной за руководителями (решено лишь 8,5% проблем). На основе международных научных исследований (теория коллективной эффективности Сэмпсона, исследование Шарки о влиянии общественных организаций) и национального опыта предлагаются пути повышения эффективности социальной профилактики.

Ключевые слова: *социальная профилактика, предупреждение преступности, "Неделя социальной профилактики," махалля, коллективная эффективность, инспекторы по профилактике, служебное жилье, работа с молодежью, профилактика правонарушений, "Благоустроенная и безопасная махалля."*

Jamiyatda jinoyatchilikning oldini olish masalasi har qanday davlat uchun doimiy dolzarb bo'lib qolaveradi. Bu faqat huquqni muhofaza qilish organlarining vazifasi bilan cheklanmaydi, balki butun ijtimoiy tizim – mahalla, oila, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning faol ishtirokiga bog'liqdir [1]. Ijtimoiy profilaktika aynan shu nuqtayi nazardan jinoyatchilikka qarshi samarali qalqon vazifasini o'taydi. U huquqbuzarliklarning ildizlarini – ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, kambag'allik, ishsizlik, huquqiy savodxonlikning pastligi, oilaviy nizolar, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish va sog'lom muhitning yo'qligini barvaqt aniqlab, ularning oldini olishga qaratilgan kompleks choralar majmuasidir. Bu yondashuv nafaqat jinoyatlarning oqibatlarini bartaraf etishga, balki ularning sabablarini tubdan

bartaraf etishga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega.

Professor Robert J. Sampson va hammualliflarining kollektiv samaradorlik (collective efficacy) nazariyasi bu g'oyaning ilmiy asosini tashkil etadi [1]. Ularning 1997-yilda Science jurnalida chop etilgan mashhur tadqiqotiga ko'ra, qo'shnilar o'rtasidagi ishonch va ularning umumiy manfaatlar uchun aralashishga tayyorligi jinoyatchilik darajasini sezilarli darajada pasaytiradi. Chikago tumanlarida o'tkazilgan ko'p yillik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kollektiv samaradorlik yuqori bo'lgan joylarda zo'ravon jinoyatlar 40 foizga kamaygan [1, p. 918-924]. Bu nazariya O'zbekistonning mahalla instituti bilan juda yaqin uyg'unlikka ega, chunki mahalla aynan qo'shnilar o'rtasidagi ishonch, o'zaro yordam va jamoaviy mas'uliyatga asoslangan milliy model hisoblanadi. Mahalla



orqali fuqarolar o'z hududining xavfsizligi uchun shaxsan mas'ul bo'lib, profilaktika ishlarining samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida mahalla tizimi ijtimoiy profilaktikaning milliy modeli sifatida tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. "Mahalla yettligi" faoliyati orqali ijtimoiy profilaktika obyektlarini – ishsiz fuqarolar, giyohvandlik va spirtli ichimliklarga ruju qo'yganlar, sudda nizolashayotgan oilalar, ilgari sudlanganlar va boshqa xavf guruhlarini barvaqt aniqlash va ular bilan manzilli ishlash tizimi joriy etilmoqda [2]. 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-sonli Prezident qaroriga ilova qilingan "Respublika mahallalarida "Ijtimoiy profilaktika haftaligi"ni o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom" bu yo'nalishni tubdan yangi bosqichga ko'tardi. Nizomning 1-3-bandlarida umumiy qoidalar, 4-bandida maqsadlar va 5-bandida vazifalar batafsil belgilangan: huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ijtimoiy obyektlarning muammolarini o'rganish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, sog'lom turmush tarzi va sportga targ'ib qilish, fuqarolarni jipslashtirish va mahallalarda sog'lom muhit yaratish.

Biroq, amaliyotda jiddiy kamchiliklar saqlanib qolmoqda va bu holat ijtimoiy profilaktikaning samaradorligini pasaytirmoqda. Joriy yilning 23-fevralda Hurmatli Vazirimiz huzurida o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlarga qaramasdan, so'nggi ikki kunda hududlar tomonidan deyarli ijobiy o'zgarishlar qilinmagan. Oqibatda respublikamizda 238 ta oldini olish mumkin bo'lgan jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilgan. Bu jinoyatlarning 74 foizi (175 tasi) atigi olti hudud hissasiga to'g'ri kelmoqda: Toshkent shahrida 68 ta, Samarqand viloyatida 26 ta, Qashqadaryoda 24 ta, Farg'onada 22 ta, Toshkent viloyatida 19 ta va Andijonda 16 ta. Har 100 ming aholiga nisbatan respublika bo'yicha o'rtacha 0,5 ta bo'lgan ko'rsatkich Toshkent shahrida 2 taga, Jizzax va Qashqadaryoda 1 taga, Samarqand va Toshkent viloyatida 0,8 taga yetgan. Bu raqamlar kriminogen vaziyatning ayrim hududlarda jiddiy og'irligini ko'rsatadi va profilaktika ishlarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Jinoyat turlari bo'yicha tahlil yanada jiddiy manzarani

namoyon etadi. So'nggi ikki kunda 1 ta og'ir tan jarohati yetkazish, 8 ta nomusga tegish, 6 ta 16 yoshga to'lmagan qizga shilqimlik qilish, 4 ta talonchilik, 87 ta o'g'rilik, 29 ta firibgarlik, 8 ta oilaviy zo'ravonlik, 20 ta bezorilik, 2 ta avtotransport vositasini olib qochish holatlari qayd etilgan. Mahallalar hududida 35 ta yo'l-transport hodisasi sodir bo'lib, shundan 5 tasi o'lim bilan yakunlangan, ulardan biri voyaga yetmagan piyoda o'limi Andijon viloyati Baliqchi tumanida ro'y bergan. Eng achinarlisi, o'z vaqtida oldi olinmaganligi oqibatida 27 ta og'ir (22 ta) va o'ta og'ir (5 ta) jinoyat sodir etilgan. Bu ko'rsatkich oldini olish mumkin bo'lgan 238 ta jinoyatning 11,5 foizini tashkil etib, profilaktika ishlarining yetarli emasligini yaqqol ko'rsatadi.

So'nggi ikki kunda jami 863 nafar shaxs jinoyat sodir etgan bo'lib, ularning 56 nafari ayollar, 22 nafari voyaga yetmaganlar, 259 nafari ishsizlar, 19 nafari ilgari sudlanganlar tashkil etadi. Bu raqamlar ijtimoiy profilaktika tadbirlarining o'z holiga tashlab qo'yilgani, o'rta bo'g'in rahbarlarining yetarlicha ishlamayotgani va "Ijtimoiy profilaktika haftaligi" mexanizmlarining to'liq ishga tushirilmayotganini ko'rsatadi. Nizomning 5-bandida belgilangan vazifalar – ijtimoiy muammolarni aniqlash, hokimlarning shaxsiy qabullari, mehnat yarmakalari, huquqiy maslahatxonalar va targ'ibot kampaniyalarini o'tkazish – amaliyotda yetarli darajada bajarilmayapti. Bundan tashqari, Nizomning 13-bandida ko'zda tutilgan ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan manzilli ishlash, biznes-loyihalar taklif qilish va yarmakalar tashkil etish kabi choralar ham to'liq amalga oshirilmayapti.

Ijtimoiy profilaktikaning samaradorligi profilaktika inspektorlarining moddiy-texnik ta'minotiga ham to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Hurmatli Vazirimiz tomonidan berilgan topshiriqlarga qaramasdan, profilaktika inspektorlariga ajratilgan xizmat uylari bo'yicha 1 486 ta salbiy kamchilik saqlanib qolmoqda. 179 ta xizmat uyida boshqa xodimlar yashamoqda (77 tasi profilaktika bo'linmalari rahbarlari, 11 tasi tezkor-qidiruv bo'linmalari, 9 tasi IIB boshlig'i o'rinbosarlari va boshqalar). 181 ta holatda uylar qarovsiz

ahvolda, sanitariya, texnik va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilmayapti. 98 nafar inspektor boshqa sohaga o'tkazilganiga qaramasdan xizmat uyida yashamoqda. 153 ta holatda boshqa mahallaga o'tgan xodimlar, 18 ta pensiyaga chiqqanlar, 13 ta ichki ishlardan bo'shatilganlar uyni bo'shatmagan. 59 ta uy hokimiyat va fuqarolar bilan nizoda, 92 tasida kommunal qarzdorlik mavjud, 102 tasi to'liq ta'mirga muhtoj yoki qayta qurish kerak. Shu bilan birga, 677 ta uyda barcha sharoitlar bo'lsa-da, inspektorlar yashamayapti (Andijonda 115 ta, Namanganda 89 ta, Qoraqalpog'istonda 85 ta va h.k.). Bu muammolar 2017-yildagi 2906-sonli Prezident qarori talablarining bajarilmayotganini ko'rsatadi va profilaktika tizimining samaradorligini pasaytiradi.

Yoshlar bilan ishlash yo'nalishida ham vaziyat qoniqarsiz qolmoqda. Joriy yilda ichki ishlar organlari rahbarlariga 9 897 nafar og'ir toifadagi yoshlar birlashtirilgan bo'lsa-da, ularning 11 247 ta muammosidan faqat 943 tasi (8,5 foiz) hal etilgan. Ko'p holatlarda hisobotlar asossiz va ko'zbo'yamachilikka asoslangan. Andijon viloyatida 87 ta (5,2 foiz), Surxondaryoda 14 ta, Toshkent shahrida 15 ta muammo hal etilgani haqida taqdim etilgan hisobotlar tekshiruvda asossiz deb topilgan. Hurmatli Prezidentimizning topshiriqlariga ko'ra, yoshlarning muammolarini hal etish orqali ularni yomon yo'lga kirib ketishi va yot g'oyalari ta'siriga tushishining oldini olish kerak, ammo bu yo'nalishdagi ishlar hali ham yetarli emas. Bu holat profilaktika haftaligining yoshlar segmentidagi samaradorligini pasaytiradi.

Xalqaro tajriba ijtimoiy profilaktikaning samaradorligini yanada yaqqol ko'rsatadi. Patrik Sharki, Jerard Torrats-Espinosa va Delaram Takyarining 2017-yilda *American Sociological Review*da chop etilgan tadqiqotiga ko'ra, 264 ta AQSH shahrida 100 ming aholiga 10 ta qo'shimcha jamoatchilik tashkiloti qo'shilsa, qotillik 9 foizga, zo'ravon jinoyatlar 6 foizga va mulkiy jinoyatlar 4 foizga kamayadi [3, p. 1214-1240]. *Community-engaged CPTED* (Crime Prevention Through Environmental Design) strategiyalari ham samarali ekanligi isbotlangan. Flint shahri (Michigan) misolida jamoatchilik jalb qilingan CPTED tadbirlari zo'ravon jinoyatlarni keskin qisqartirgan [4]. O'zbekistondagi "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili aynan shu ilg'or yondashuvni milliy sharoitga moslashtiradi. Nizomning 11 va 14-bandlariga

muvofiq, haftalik targ'ibot kampaniyalari, madaniy tadbirlar va homiylarni jalb qilish orqali aholini jipslashtirish mumkin.

Ijtimoiy profilaktika tizimining samaradorligi faqat bir haftalik tadbirlar bilan cheklanmaydi. U doimiy, tizimli va manzilli bo'lishi kerak. Prezident qarorida belgilangan mexanizmlar – takliflarni shakllantirish, farmoyishlar qabul qilish, tashkiliy qo'mitalar tuzish, hisobotlarni tahlil qilish va natijalarni ommaviy axborot vositalarida yoritish – aynan shu tizimlilikni ta'minlaydi. Nizomning 17-bandida sustkashlikka yo'l qo'ygan mansabdorlarga ta'sir choralari va siddiqildan ishlaganlarni rag'batlantirish ko'zda tutilgani ijrochilarning mas'uliyatini oshirishi kerak. Bundan tashqari, Nizomning 15-bandiga muvofiq, haftalik yakunida "mahalla yettiligi" uchun seminar-treninglar o'tkazish malakani oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik jalb qilingan dasturlar nafaqat jinoyatchilikni kamaytiradi, balki aholining turmush sifatini ham oshiradi. O'zbekiston sharoitida mahalla tizimi orqali buni amalga oshirish imkoniyatlari juda katta. Nizomning 6-9-bandlari har bir hududning o'ziga xos kriminogen vaziyatini hisobga olish imkonini beradi. Yoshlarning ishtiroki alohida ahamiyatga ega. Haftalik doirasida o'tkaziladigan targ'ibot, sport va madaniy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarni sog'lom turmush tarziga jalb etib, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga hissa qo'shadi. Shuningdek, taniqli shaxslar, sportchilar va san'atkorlarni jalb qilish (Nizom 5-bandi) targ'ibotning samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy profilaktika jinoyatchilikka qarshi samarali qalqondir. Prezident qarori va "Ijtimoiy profilaktika haftaligi" mexanizmi bu yo'nalishni kuchaytirish imkonini beradi. Ammo amaliyotdagi kamchiliklar – xizmat uylari muammosi, yoshlar bilan ishlashdagi sustkashlik, hisobotlardagi ko'zbo'yamachilik va profilaktika tadbirlarining yetarli emasligini tez fursatda bartaraf etish zarur. Davlat organlari, mahalla tuzilmalari va fuqarolarning haqiqiy hamkorligi orqali jinoyatchilikni kamaytirish, jamiyatda tinchlik, osoyishtalik va o'zaro ishonch muhitini mustahkamlash mumkin. Kelajakda raqamli texnologiyalarni jalb qilish, ilmiy tahlillarni kuchaytirish va xalqaro tajribani chuqurroq o'zlashtirish orqali yanada yuqori natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Sampson R.J., Raudenbush S.W., Earls F. Neighborhoods and Violent Crime: A Multilevel Study of Collective Efficacy // *Science*. – 1997. – Vol. 277. – P. 918-924.
2. Ismailov I. Mahalla Law Enforcement Point (The Lowest Stage of Public Security System) // *International Journal of Social Science Research and Review*. – 2022. – Vol. 5. – No. 4. – P. 1-12.
3. Sharkey P., Torrats-Espinosa G., Takyar D. Community and the Crime Decline: The Causal Effect of Local Nonprofits on Violent Crime // *American Sociological Review*. – 2017. – Vol. 82. – No. 6. – P. 1214-1240.
4. Rupp L.A. et al. Community-engaged crime prevention through environmental design // *American Journal of Community Psychology*. – 2025. – P. 1-18.
5. Ekici N. A meta-analysis of the impact of community policing on crime reduction // *Journal of Community Safety and Well-Being*. – 2022. – Vol. 7. – No. 2. – P. 45-62.
6. Sharipov J.S. Osobennosti ranney profilaktiki pravonarusheniy v "krasnix" maxallyax: opit Respubliki Uzbekistan // *IMRAS*. – 2026. – T. 4. – S. 45-58.

Nargiza MIRJALOLOVA,
*Ichki ishlar vazirligi ma'naviy-ma'rifiy ishlar
 va kadrlar bilan ta'minlash departamenti,
 xizmat boshlig'i o'rinbosari*

АКСИОЛОГИК ЁНДАШУВ АСОСИДА ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИНИНГ ТИББИЙ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ

Аннотация: мазкур мақолада ички ишлар органлари ходимларида тиббий маданиятни шакллантиришнинг назарий-методологик асослари аксиологик (қадриятли) ёндашув асосида таҳлил қилинган. Тадқиқотда соғлиқ феномени шунчаки жисмоний ҳолат эмас, балки ходимнинг шахсий, касбий ва ижтимоий ҳаётини белгиловчи олий қадрият сифатида асослаб берилган. Мақолада тиббий маданиятни шакллантиришнинг тўрт босқичли (когнитив, мотивацион, фаолиятли ва рефлексив) модели ҳамда соғлиқ қадриятларининг иерархик тузилмаси ёритилган. Олиб борилган таҳлиллار асосида Ички ишлар органлари ходимларининг касбий узоқ умр кўриши ва стрессга чидамлилигини оширишга қаратилган педагогик тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: аксиологик ёндашув, ички ишлар органлари, тиббий маданият, касбий деформация, профилактика.

Аннотация: в данной статье анализируются теоретико-методологические основы формирования медицинской культуры сотрудников органов внутренних дел через призму аксиологического (ценностного) подхода. В исследовании феномен здоровья обосновывается не просто как физическое состояние, а как высшая ценность, определяющая личную, профессиональную и общественную жизнь сотрудника. В статье освещены четырёхэтапная модель формирования медицинской культуры (когнитивная, мотивационная, деятельностная и рефлексивная), а также иерархическая структура ценностей здоровья. На основе проведенного анализа разработаны педагогические рекомендации, направленные на повышение профессионального долголетия и стрессоустойчивости сотрудников ОВД.

Ключевые слова: аксеологический подход, органы внутренних дел, медицинская культура, профессиональная деформация, стресс, профилактика.

Annotation: this article analyzes the theoretical and methodological foundations of the formation of medical culture of employees of internal affairs bodies through the prism of the axiological (value-based) approach. The study substantiates the phenomenon of health not simply as a physical condition, but as the highest value that determines the personal, professional and social life of an employee. The article highlights a four-stage model of medical culture formation (cognitive, motivational, activity-based and reflexive), as well as a hierarchical structure of health values. Based on the conducted analysis, pedagogical recommendations were developed aimed at increasing the professional longevity and stress resistance of police officers.

Key words: axeological approach, internal affairs agencies, medical culture, professional deformation, stress, prevention.

Дунёда жиноятчилик билан боғлиқ вазият жадал ўзгариб, ҳуқуқий муносабатлар мураккаблашиб бораётган бир шароитда ички ишлар органларида малакали кадрларни шакллантириш масаласи айниқса долзарб бўлиб бормоқда. Ходимларнинг юқори даражадаги касбий билим ва кўникмалари, шунингдек, шахсий фазилатлари ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари фаолияти самарадорлигини таъминлаб, фуқароларнинг давлат органларига ишончини мустаҳкамлайди. Касбий компетенция нафақат назарий билимлар йиғиндиси сифатида, балки тезкор вазиятларда, стратегик мақсад ва ҳуқуқий тартибга

солишнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда уни амалиётда қўллаш қобилияти сифатида ҳам кўриб чиқилиши керак. Етук кадрларни шакллантириш масаласи ички ишлар органларига иқтидорли номзодларни танлаш, тайёрлаш, мослаштириш ва кейинги касбий ўсиши бўйича комплекс ишларни жорий этишни назарда тутди.

Ички ишлар органлари ходимларида тиббий маданиятни шакллантириш – уларнинг касбий фаолиятидаги ўта оғир жисмоний ва психологик юкларларни енгиш, жанговар шайликни сақлаш ва хизматда узоқ вақт хизмат олиб боришни таъминлашга қаратилган



тизимли педагогик жараёндир.

Ички ишлар органлари ходимларида тиббий маданиятни шакллантириш жараёни, энг аввало, уларнинг ички қадриятлар тизимини ўзгартиришни талаб этади. Таниқли педагог-олим В.А. Сластенин таъкидлаганидек: “Қадриятли ёндашув инсон маданиятини асоси бўлиб, у шахснинг ўз ҳаётий фаолияти омилларига, шу жумладан ўз соғлиғига нисбатан онгли ва масъулиятли муносабатини белгилайди” [Сластенин, Чижакова, 2003:45]. Шу боис, тизим ходими учун соғлом турмуш тарзи ташқи мажбурият эмас, балки ички эҳтиёжга айланиши лозим.

Ушбу жараённинг назарий-методологик асослари бир неча илмий ёндашувлар, тамойиллар ва таркибий қисмлар тизимига асосланади.

Методологик ёндашув (илмий асослар)

Ходимларнинг тиббий маданиятини юксалтириш ва соғлом турмуш тарзини касбий одатга айлантириш масаласи қуйидаги методологик ёндашувлар асосида таҳлил қилинади:

Аксиологик (қадриятли) ёндашув

Тизимли ёндашув: Тиббий маданиятни шакллантиришни яхлит тизим (тиббий, билим, гигиеник кўникма, психологик барқарорлик, жисмоний фаоллик) сифатида кўриб чиқиш.

Фаолиятли ёндашув: назарий тиббий билимларни бевосита амалий хизмат фаолиятида (экстремал

вазиятларда биринчи ёрдам кўрсатиш, иш тартиби ва дам олишни тўғри тақсимлаш) қўллаш кўникмасини ривожлантириш.

Акмеологик ёндашув: Ходимнинг ўз жисмоний ва руҳий имкониятлари чўққисига (акме) эришиш, касбий соҳада узоқ йиллар юқори ишчанлик қобилиятини сақлаш қолишга интилиш.

Аксиология (юнонча «axios» – қадрият, «logos» – таълимот) доирасида ходимнинг тиббий маданияти унинг ички қадриятлар тизими (ориентацияси) орқали баҳоланди. Ходимда соғлом турмуш тарзига ташқи мажбурлов орқали эмас, балки эҳтиёж ва онгли равишда амал қилиш туйғусини уйғотиш.

Педагогик аксиология назариясига кўра, касбий маданиятнинг шаклланиши шахснинг қадриятлар иерархияси билан бевосита боғлиқ. Жумладан, В.А.Сластенин тизимда ҳар қандай соҳа мутахассисининг ўз жисмоний ва интеллектуал ресурсларини асраши умумий касбий маданиятнинг пойдевори сифатида кўрилади [Сластенин, Чижакова, 2003.]. Бу ёндашув ички ишлар ходимларининг оғир хизмат шароитида ўз жанговар шайлиги ва саломатлигини сақлаши нафақат шахсий, балки касбий мажбурият эканлигини илмий асослайди.

Ички ишлар органлари ходимларида аксиологик ёндашув асосида тиббий маданиятни шакллантириш муаммоси педагогика, тиббиёт, социология ва касбий

психология соҳалардаги қатор назарий манбаларга таянади. Жумладан, шахснинг соғлиқ ва тиббий маданиятга бўлган муносабатини қадрият сифатида ўрганиш бўйича жаҳон илмий ҳамжамиятида салмоқли ишлар қилинган.

Халқаро тадқиқотчилардан: В.А.Сластенин, Г.И. Чижакова (Педагогик аксеология), О.С.Васильева, Ф.Р.Филатов (Саломатлик психологияси ва эталонлар), И.И.Брехман (Валеология асослари) ва В.В.Колбановларнинг ишларида саломатлик маданияти шахснинг умумий маданиятининг ажралмас қисми ва ички эҳтиёж сифатида асослаб берилган.

Республика олимларидан: Миллий педагогикамизда қадриятли ёндашувлар, олий таълимда валеологик маданиятни шакллантириш муаммолари Ш.Ш.Мирзиёева, З.Қ.Рахимова, О.А.Қўйсенов, Ш.А.Шарипов каби олимлар томонидан тадқиқ этилган. Бироқ ушбу ишларда асосий урғу умумпедагогик тизимга қаратилган бўлиб, ИИО ходимларининг экстремал касбий фаолияти хусусиятлари инобатга олинмаган.

ИИО тизимида ходимларнинг тиббий саводхонлиги ва жанговар-жисмоний шайлиги уйғунлиги масаласи чет эл олимларининг алоҳида диққат марказида бўлиб келган. Бу борада К.К.Кораблин (ИИО ходимларининг профессионал-тиббий маданиятини шакллантириш), Н.В.Мальцев (Экстремал шароитларда тиббий тайёргарлик), А.А.Матусевич ва Б.М.Карабаевларнинг илмий изланишларини кўрсатиб ўтиш ўринлидир. Уларнинг ишларида тиббий билимлар хизмат унумдорлигини ошириш ва касбий деформациянинг олдини олиш омили сифатида баҳоланган.



Экстремал вазиятларда ходимларнинг руҳий саломатлиги ва касбий адаптацияси масалалари хориж ва маҳаллий олимлар томонидан кенг таҳлил қилинган.

Ғарб олимларидан Н.Тош (Полицияда стресс), J.M.Violanti (Ҳуқуқ-тартибот органларида психологик хавфлар ва соматик саломатлик билан боғлиқлиги) ва D.C.Goldstein тадқиқотлари полиция ходимлари соғлиғининг тизимли мониторинги зарурлигини методологик жиҳатдан исботлайди.

Ички ишлар ходимларининг касбий муомила маданияти, ижтимоий-психологик хусусиятлари ва маънавий-касбий фазилатларини юксалтириш масалалари юртимиз олимларидан И.А.Матчанов, Б.Б.Хасанов томонидан ИИО ходимларининг касбий маданияти ижтимоий институт сифатида тизимли баҳоланган бўлса, А.А.Исмоилов ходимларда соғлом турмуш тарзи элементларини ривожлантиришнинг педагогик жиҳатларига тўхталиб ўтган.

Олиб борилган адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, ИИО ходимларининг касбий маданияти ва жисмоний тайёргарлиги алоҳида тадқиқ этилган бўлсада, аксиологик (қадриятли) ёндашув асосида шахсий, касбий, ижтимоий даражаларни қамраб олувчи яхлит тиббий маданиятни шакллантириш механизми ишлаб чиқилмаган.

Тиббий маданиятни шакллантиришнинг ИИО таълим муассасалари (ИИВ Академияси, Малака ошириш институти) ва бевосита кундалик хизмат фаолияти узвийлигидаги педагогик тизими яратилмаган.

Мазкур илмий эҳтиёж ҳамда мавжуд назарий-амалий бўшлиқ ушбу тадқиқот ишининг мавзуси, мақсади ва вазифаларини белгилашга асос бўлди.

Ички ишлар органлари ходимларида тиббий маданиятни шакллантиришда аксиологик (қадриятли) ёндашув энг муҳим назарий ва амалий асослардан бири ҳисобланади. Бу ёндашув ходимнинг саломатликка шунчаки биологик омил эмас, балки энг олий шахсий, касбий ва ижтимоий қадрият сифатида қарашини шакллантиришга қаратилган. Аксиологик ёндашув ички ишлар ходимларида саломатликни шахсий қадрият сифатида, касбий қадрият ва ижтимоий қадрият сифатида англашни назарда тутди.

Шахсий даражада саломатлик — узоқ умр кўриш, оила фаровонлиги, бахтли

ҳаёт ва шахсий камолотнинг бош гарови бўлиб, ходим ўз соғлигини йўқотиши оиласи ва яқинларига ҳам таъсир қилишини чуқур ҳис этади. Касбий даражада саломатлик — хизмат вазифаларни сифатли бажариш, жанговар шайликни сақлаш, экстремал вазиятларда тўғри қарор қабул қилиш ва касбий деформацияга тушмасликнинг асосий манбаи ҳисобланади. Ижтимоий даражада эса ички ишлар ходимининг соғлиғи давлатнинг хавфсизлиги ва жамоат тартибини таъминловчи ижтимоий капиталдир. Давлат ходимни мутахассис сифатида тайёрлаш ва унинг ижтимоий ҳимояси учун катта ресурс сарфлайди, демак ўз соғлигини асраш ходимнинг давлат олдидаги масъулиятидир.

Аксиологик ёндашув асосида тиббий маданиятни

шакллантириш босқичлари.

Ахборотни қабул қилиш ва англаш: ходим соғлом турмуш тарзи, зарарли одатларнинг оқибатлари ва касбий касалликлар ҳақидаги маълумотларни тинглаб, ҳаётига таъсирини англайди.

Қадриятларни ички иерархияга киритиш (интериоризация): тиббий билимлар ходимнинг ички дунёсига кўчиб ўтади. У “спорт билан шуғулланишим шарт, чунки буйруқ шундай” деган фикрдан “спорт билан шуғулланишим керак, чунки бу менинг жисмоний ва руҳий қувватимни оширади” деган ишончга ўтади.

Қадриятларни хулқ-атворда намоён бўлиши: шаклланган қадрият кундалик одатга айланади (тўғри овқатланиш, зарарли одатлардан тийилиш, ўз вақтида тиббий кўриқдан ўтиш).

Ходим онгида тиббий фаолиятлар тизими бир неча босқичда шаклланади:

№	Босқич номи	Мақсади	Шахсий акс этиши	Касбий акс этиши	Ижтимоий акс этиши	Баҳолаш индикатори
1	Когнитив-ахборот босқичи (англаш ва билим олиш)	Саломатлик омиллар ва касбий хавфлар ҳақида тизимли билимлар базасини яратиш	Шахсий гигиена, тўғри овқатланиш ва зарарли одатларнинг оқибатларини тушуниш	Хизматдаги жисмоний юктамалар ва психологик стресс омиллари ҳақида маълумотга эга бўлиш	Саломатлик-давлат хавфсизлигини таъминловчи муҳим ресурс эканлигини англаш	Тиббий ва гигиеник билимлар бўйича тест ва сўровнома натижалари
2	Интериоризация (ички қадриятга айланиш) мотивация	Тиббий билимларни шахсий ва касбий эҳтиёжга, ички ишончга айлантириш	Соғлом ҳаёт кечиришни оила фаровонлиги ва узоқ умр кўришнинг бош гарови деб тан олиш	Жисмоний ва руҳий шайликни хизматда муваффақиятга эришишнинг асосий қуроли деб билиш	Ўз соғлигини асрашни ватан олдидаги офицерлик масъулияти сифатида қабул қилиш	Соғлом турмуш тарзига бўлган ички мотивация ва интилиш даражаси
3	Реализация (кундалик одат)	Шаклланган қадриятларни кундалик хизмат ва ҳаёт тарзида амалда намоён этиш	Зарарли одатлардан бутунлай воз кечиш, шахсий ҳаётда спорт ва тўғри овқатланишни одат қилиш	Жанговар ва жисмоний нормативларни аъло топшириш, хизматда биринчи тиббий ёрдамни беҳато кўрсатиш	Жамоат жойларда ва хамкаблар ўртасида соғлом турмуш тарзи бўйича шахсий ибрат намунаси бўлиш	Жисмоний тайёргарлик кўрсаткичлари ва тиббий кўрик (диспансеризация) вақтида ўтиш, тавсияларга сўзсиз амал қилиш
4	Рефлексив-баҳолаш босқичи (назорат ва ривожланиш)	Ўз саломатлиги ва тиббий маданияти даражасини мунтазам таҳлил қилиш ва тузатишлар киритиш	Жисмоний ва руҳий ҳолатини мустақил баҳолаш, касалликларнинг олдини олишга интилиш	Касбий чарчоқ белгиларини вақтида пайқаш ва психологик тикланиш усуллари қўллаш	Яратилган тиббий-ижтимоий имкониятлардан (санаторий, тиббий хизмат) унумли фойдаланиш	Ўз-ўзини назорат қилиш кундалиги, хизматда узоқ вақт хизмат қилиши ва касбий барқарорлик

Ушбу жадвал тиббий маданиятнинг шунчаки тушунча эмас, балки **когнитивликдан** (билимдан) **рефлексияга** (амалий натижага) қараб ривожланувчи динамик жараён эканлигини кўрсатади. Аксиологик ёндашувнинг муваффақияти ходимнинг 2-босқичдан (мотивация) 3-босқичга (амалиётга) қанчалик силлиқ ўтиши билан белгиланади.

Ички ишлар органлари тизимида аксиологик (қадриятли) ёндашувни амалга ошириш ва ходимлар онгига саломатликни бош қадрият сифатида шакллантириш бир қатор тизимли, касбий ва психологик қийинчиликлар билан тўқнаш келади. Жумладан,

1) хизмат режими билан боғлиқ қийинчиликлар: тунги навбатчиликлар, кутилмаган чақирувлар ва хизмат зарурияти ходимнинг кун тартибини, уйку ва овқатланиш балансини бузади. Бундай шароитда соғлом турмуш тарзи қадриятларини амалда қўллаш жисмонан қийинлашади.

а) стресс: экстремал вазиятлар, жиноятчиликка қарши кураш, масъулиятли хизмат вазифалар ходимни сурункали руҳий зўриқишда ушлаб туради. Натижада организмни тиклашга бўлган эҳтиёж иккинчи планга ўтиб қолади.

б) вақт танқислиги: ходимларда тиббий билимларни ошириш, спорт билан тизимли шуғулланиш ёки шунчаки чуқурлаштирилган тиббий кўрикдан ўтиш учун шахсий вақт етишмайди.

2) психологик тўсиқлар: “эркаклик стереотипи” эркаклар уствор бўлган соҳада улар ўртасида соғлигидан шикоят қилиш, шифокор ёки психологга мурожаат қилиш заифлик белгиси деб ҳисобланиши мумкин. Бу эса муаммоларни ичга ютиш ва касалликларни ўтказиб юборишга олиб келади. Узоқ йиллик хизмат давомида ходимларда ҳиссий чарчоқ пайдо бўлади. Бу ҳолат эса нафақат атроф-муҳитга, балки ўз соғлиги ва тиббий

маданиятга нисбатан ҳам лоқайд қилиб қўяди.

3) ташкилий муаммолар: амалда хизмат интизоми ва касбий маданият концепциясида маънавий-маърифий ва ҳуқуқий жиҳатларга катта урғу берилади, лекин тиббий маданият (ўз соғлиғига масъулия, вақтида даволаниш, тиббий саводхонлик) касбий муваффақиятнинг муҳим қадрияти сифатида алоҳида ажратиб кўрсатилмайди. Тизимда саломатлик кўпинча буйруқ ва нормативлар (жисмоний тайёргарлик синовлар ва мажбурий диспансеризация) орқали назорат қилинади. Ходим соғлом бўлишга ички эҳтиёж сезгани учун эмас, балки жазоланмаслик ва текширувдан ўтиш учунгина ҳаракат қилади. Тиббиёт муассасалари кўпинча касалликнинг олдини олиш (профилактика ва қадриятларни шакллантириш) билан эмас, пайдо бўлган касалликларни даволаш ёки ходимнинг хизматга яроқлилигини баҳолаш (ҳарбий-тиббий экспертиза) билан шуғулланади.

4) педагогик муаммолар: тизимдаги олий таълим (ИИВ Академияси) ҳамда малака ошириш курсларида тиббий маданиятни шакллантириш бўйича махсус аксиологик модуллар мавжуд эмас. Дарслар кўпинча фақат биринчи тиббий ёрдам кўрсатишдек техник кўникмалар билан чекланади.

Аксиологик ёндашув айнан мана шундай вазиятларда ҳам ходимга ўз соғлигини асраш орқали хизмат самарадорлигини янада ошириш мумкинлигини сингдиришга хизмат қилади. Аксиологик ёндашув самара бериши учун тизимда бошқарув фалсафасини ўзгартириш: “Соғлом ходим – самарали хизмат кифолати” тамойили уствор бўлиш керак. Бунинг учун маърифий-педагогик ишларни кучайтириш, ходимларни дам олиш ҳуқуқларини таъминлаш ва соғлом ҳаёт тарзини тизимли равишда амалга ошириш зарур механизмини яратиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёва Ш.Ш. Педагогикада аксиологик ёндашувнинг назарий-методологик асослари-Тошкент; Фан ва технологиялар, 2019.-160 б. (Педагогикада қадриятлар тизимини ўрганиш бўйича асосий манба)
2. Васильева О.С., Филатов Ф.Р. Психология здоровья человека: эталоны, представления, ценности.-М.: Академия, 2001.-352 с.
3. Хасанов Б.Б. Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданиятива уни юксалтириш омиллари: Социология фанлари доктори (DSc) дисс.авторефер.-Тошкент, 2021
4. Исмоилов А.А. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимларида соғлом турмуш тарзи ва тиббий маданиятни шакллантиришнинг педагогик хусусиятлари // Муаллим ва узлуксиз таълим.-Нукус, 2023.-№3.-Б.45-51.
5. Рахимов З.Қ. Бўлажак мутахассисларнинг валеологик (тиббий-соғломлаштириш) маданиятини шакллантиришда қадриятли ёндашув. Монография.-Бухоро: Дурдона, 2022.-144б.
6. Сластенин В.А., Чижаква Г.И. Введение в педагогическую аксологию: Учебное пособие для студентов высш.пед.учеб.заведений.-М.: Издательский центр «Академия», 2003.-192 с.
7. Кораблин К.К. Формирование профессионально-медицинской культуры сотрудников правоохранительных органов в процессе специальной подготовки: Дис. ...канд.пед.наук.-Санкт-Петербург, 2018. -215 с.
8. Макарова Л.Н., Шаршов И.А. Аксиологический подход к сохранению здоровья объектов образовательного процесса в ведомственных вузах МВД // Вестник Тамбовского университета.-202.-Т.25, №185. -С.7-15.



Мухтор АБДУРАХИМОВ,

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги

Ташкилий департаменти Юридик таъминлаш бошқармаси бошлиғи ўринбосари,

подполковник, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD),

доцент (m.abduraximov@iiv.uz)

ИНСОН ГЕНОМИГА ОИД АХБОРОТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ ТАБИАТИ: МИЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ТАҲЛИЛИ

Аннотация: мақолада инсон геноми ва геномга оид ахборот тушунчаларининг назарий-ҳуқуқий мазмуни таҳлил қилинган. Геном, генетик ахборот ва геномга оид ахборот категорияларининг ўзаро нисбати ҳамда геномга оид ахборотнинг ҳуқуқий табиати очиб берилган. Шунингдек, унинг шахсга доир ва биометрик маълумотлар тизимидаги ўрни илмий жиҳатдан асосланган. Қозоғистон, Россия, Озарбайжон ва Украина қонунчилигида мазкур тушунчанинг ҳуқуқий тартибга солиниши қиёсий-ҳуқуқий таҳлил қилинган. Тадқиқот натижалари асосида инсон геномига оид ахборотнинг муаллифлик таърифи ишлаб чиқилган ҳамда миллий қонунчиликни такомиллаштиришга доир таклифлар илгари сурилган.

Калит сўзлар: *инсон геноми, геномга оид ахборот, генетик ахборот, ДНК-профиль, биометрик маълумотлар, шахсга доир маълумотлар, генетик маълумотлар.*

Аннотация: в статье анализируется теоретико-правовое содержание понятий генома человека и геномной информации. Раскрыто соотношение категорий геном, генетическая информация и геномная информация, а также правовая природа геномной информации. Также научно обоснована его роль в системе персональных и биометрических данных. В законодательстве Казахстана, России, Азербайджана и Украины проведен сравнительно-правовой анализ правового регулирования данного понятия. На основе результатов исследования разработано авторское определение информации о геноме человека и выдвинуты предложения по совершенствованию национального законодательства.

Ключевые слова: *геном человека, геномная информация, генетическая информация, ДНК-профиль, биометрические данные, персональные данные, генетическая информация.*

Annotation: the article analyzes the theoretical and legal content of human genome and genomic information concepts. The relationship between the categories of genome, genetic information, and genomic information, as well as the legal nature of genomic information, have been revealed. Its role in the system of personal and biometric data has also been scientifically substantiated. In the legislation of Kazakhstan, Russia, Azerbaijan, and Ukraine, a comparative legal analysis of the legal regulation of this concept was conducted. Based on the research results, an author's definition of information about the human genome was developed and proposals for improving national legislation were put forward.

Key words: *human genome, genomic information, genetic information, DNA profile, biometric data, personal data, genetic information.*

XXI аср биотехнологиялар, геном тадқиқотлари ва рақамли технологиялар жадал ривожланаётган давр сифатида тавсифланади. Молекуляр генетика, геномика ва биоинформатика соҳаларида эришилган илмий ютуқлар инсон геноми ҳақидаги билимларни тубдан кенгайтириб, генетик маълумотлардан тиббиёт, фармакология, криминалистика, суд экспертизаси, миграция жараёнларини тартибга солиш, бедарак йўқолган шахсларни аниқлаш ҳамда фавқулудда вазиятларда ҳалок бўлган шахсларни идентификация қилиш соҳаларида самарали фойдаланиш имконини яратди.

Генетик технологияларнинг кенг қўлланилиши инсон геномига оид ахборотнинг ҳуқуқий мақомини аниқ белгилаш заруратини келтириб чиқармоқда. Мазкур ахборот инсоннинг биологик хусусиятлари, ирсий белгилари ва келиб чиқиши ҳақида маълумот бериши билан бирга муайян шахсни юқори даражада аниқлик билан идентификация қилиш имконини ҳам таъминлайди. Шу боис геномга оид ахборотнинг ҳуқуқий муҳофазаси, махфий-

лиги, қайта ишланиши ва ундан фойдаланиш тартибини белгилаш замонавий ҳуқуқ фанининг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Биоэтика соҳасидаги таниқли олим George J. Annas генетик маълумотларни XXI асрнинг энг сезгир шахсий маълумотлари сифатида баҳолаб, улардан назоратсиз фойдаланиш инсон ҳуқуқлари ва шахсий ҳаёт дахлсизлиги учун жиддий хавф туғдириши мумкинлигини таъкидлайди [1].

Тадқиқотнинг мақсади инсон геноми, генетик ахборот ва геномга оид ахборот тушунчаларининг мазмунини очиб бериш, геномга оид ахборотнинг ҳуқуқий табиатини аниқлаш ҳамда унинг шахсга доир ва биометрик маълумотлар тизимидаги ўрнини белгилашдан иборат.

Генетик идентификация ва геномга оид ахборотнинг ҳуқуқий табиатини англаш учун, аввало, инсон геноми тушунчасининг биологик мазмунини ёритиш зарур.

Илмий адабиётларда инсон геноми инсон организмида мавжуд бўлган барча ирсий ахборотнинг тўлиқ йиғин-

диси сифатида таърифланади. У 22 жуфт аутозома, бир жуфт жинсий хромосома ҳамда митохондриял ДНКдан ташкил топган бўлиб, тахминан 3 миллиарддан ортиқ жуфт нуклеотид асосларини ўз ичига олади [2].

Молекуляр биология нуқтаи назаридан ДНК аденин (А), тимин (Т), гуанин (G) ва цитозин (C) нуклеотидларидан ташкил топади. Уларнинг муайян кетма-кетликда жойлашиши инсоннинг ирсий хусусиятлари, биологик ривожланиши ва физиологик белгиларини шакллантиради [3].

Шу маънода инсон геноми организмнинг биологик ва ирсий дастури ҳисобланади. Хорижий олимлар инсон геномини инсон шахсиятининг биологик асоси сифатида баҳолаб, унинг ҳуқуқий муҳофазаси инсон қадр-қиммати ва автономияси билан узвий боғлиқ эканлигини таъкидлайдилар [4].

Илмий адабиётларда «геном», «генетик ахборот» ва «геномга оид ахборот» тушунчалари кўп ҳолларда синоним сифатида қўлланилса-да, уларнинг мазмуни бир хил эмас.

Геном инсон организмдаги барча генетик материални англатади. Генетик ахборот мазкур материалда сақланувчи ирсий маълумотларнинг йиғиндисидир. Геномга оид ахборот эса инсон геномининг муайян қисмлари ҳақидаги ва шахсни идентификация қилиш учун етарли бўлган кодланган маълумотлар мажмуасини ташкил этади.

Амалиётда ДНК идентификацияси инсон геномининг барча қисмини эмас, балки юқори полиморфизмга эга бўлган STR-маркерларни таҳлил қилишга асосланади. Ушбу локуслар асосида шакллантирилган ДНК-профиль муайян шахсни ишончли идентификация қилиш имконини беради. Шу сабабли геномга оид ахборот инсон геномининг идентификацион аҳамиятга эга бўлган махсус қисми сифатида баҳоланиши мумкин.

Генетик ахборот тушунчаси дастлаб биология ва генетика соҳаларида шаклланган бўлиб, кейинчалик ҳуқуқий муносабатларнинг мустақил объекти сифатида эътироф этилди.

Француз тадқиқотчиси Ж. Беисон генетик ахборотни ДНК ёки РНК нуклеотидлари кетма-кетлигида сақланувчи ирсий маълумотлар йиғиндиси сифатида таърифлайди [5]. Катта рус энциклопедиясида эса генетик ахборот тирик организмларнинг тузилиши, ривожланиши ва ҳаёт фаолиятини таъминловчи ирсий маълумотлар тизими сифатида тавсифланган [6].

Халқаро ҳуқуқий ҳужжатларда мазкур тушунчанинг ҳуқуқий мазмуни босқичма-босқич шаклланган. Хусусан, 1997 йилги «Инсон геноми ва инсон ҳуқуқлари тўғрисидаги умумжаҳон декларацияси» инсон геномини инсониятнинг умумий мероси сифатида эътироф этган бўлса, 2003 йилги «Инсон генетик маълумотлари тўғрисидаги халқаро декларация»да генетик маълумотлар инсоннинг ирсий хусусиятларига оид маълумотлар сифатида белгиланган [7].

Шунингдек, Европа Кенгашининг Инсон ҳуқуқлари ва биомедицина тўғрисидаги Овьедо конвенциясида генетик маълумотлар инсоннинг хусусий ҳаётига дахлдор алоҳида тоифадаги маълумотлар сифатида баҳоланган [8].

Қозғоғистон Республикасининг 2016 йил 30 декабрдаги

«Дактилоскопик ва геном бўйича рўйхатга олиш тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ геномга оид ахборот шахс ёки номаълум мурданинг ДНКсининг муайян қисмлари ҳақидаги кодланган маълумотлар сифатида белгиланган [9].

Россия Федерациясининг 2008 йил 3 декабрдаги Қонунида мазкур тушунча жисмоний шахс ёки номаълум мурданинг ДНКсига оид кодланган биометрик маълумотлар сифатида ифодаланган [10].

Озарбайжон Республикаси қонунчилигида мазкур тушунча асосан шахсни идентификация қилиш имконини берувчи ДНК таҳлили натижалари билан боғланади [11]. Украина қонунчилигида эса инсоннинг генетик хусусиятлари ҳақидаги маълумотлар сифатида кенгроқ талқин қилинган [12].

Қиёсий таҳлил натижалари Қозғоғистон ва Россия қонунчилигида мазкур категориянинг ҳуқуқий конструкцияси нисбатан мукаммал шаклланганлигини кўрсатади.

Геномга оид ахборотнинг ҳуқуқий табиатини белгилаш замонавий ҳуқуқ назариясидаги энг баҳсли масалалардан бири ҳисобланади.

Айрим олимлар генетик маълумотларнинг ўзига хос хусусияти сифатида унинг нафақат муайян шахсга, балки унинг биологик қариндошларига ҳам дахлдор бўлишини таъкидлайдилар [13]. Хусусан, R. Andorno генетик маълумотлар бир вақтнинг ўзида ҳам индивидуал, ҳам оилавий ахборот ҳисобланишини қайд этади [14].

Бошқа тадқиқотчилар генетик маълумотларни персоналлаштирилган ва деперсоналлаштирилган шаклларда мавжуд бўлиши мумкин бўлган ахборот тури сифатида баҳолайдилар [15].

Муаллифнинг фикрича, геномга оид ахборотнинг айрим элементлари қариндош шахсларда ўхшаш бўлиши мумкинлиги унинг индивидуал хусусиятини инкор этмайди. Чунки замонавий молекуляр генетика усуллари ҳатто яқин қариндошларнинг ДНК профилларини ҳам юқори аниқлик билан фарқлаш имконини беради.

Шу сабабли геномга оид ахборот биринчи навбатда муайян шахс билан узвий боғлиқ бўлган индивидуал ахборот ҳисобланади. Илмий адабиётларда унинг идентификационлик, ирсийлик ва нисбатан ўзгармаслик хусусиятлари мазкур маълумотни биометрик маълумотларнинг энг мураккаб турларидан бири сифатида баҳолаш учун асос бўлиши таъкидланган [16].

Ўзбекистон Республикасининг «Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ шахсга доир маълумотлар муайян жисмоний шахсга тааллуқли бўлган ёки уни идентификация қилиш имконини берувчи ахборот ҳисобланади [17].

Муаллиф фикрича, геномга оид ахборот бир вақтнинг ўзида ҳам шахсга доир маълумот, ҳам биометрик маълумот ҳисобланади. Чунки у:

- шахсни идентификация қилиш имконини беради;
- инсоннинг биологик хусусиятларини акс эттиради;
- нисбатан ўзгармас табиатга эга;
- муайян шахс билан узвий боғлиқ ҳисобланади.

Инсон ҳуқуқлари бўйича Европа суди инсонни фақат генетик хусусиятлари асосида баҳолаш мумкин эмаслигини таъкидлаган [18]. Шу билан бирга, Европа ҳуқуқий доктринасида генетик маълумотларни қайта ишлашда

пропорционаллик, мақсадлилиқ ва минимал аралашув принципларига риоя қилиш зарурлиги қайд этилган [19].

Юқоридагилардан келиб чиқиб, қуйидаги муаллифлик таърифи таклиф этилади:

«Инсон геномига оид ахборот — одамнинг ёки таниб олинмаган мурданинг дезоксирибонуклеин кислотасининг муайян қисмлари ҳақидаги кодланган маълумотларни ўз ичига олган, шахсни идентификация қилиш имконини берувчи биометрик шахсга доир маълумотлардир».

Бундан ташқари, рақамли технологиялар ва сунъий интеллект тизимлари ривожланаётган шароитда геномга оид ахборотни муҳофаза қилиш масаласи миллий биологик хавфсизликнинг муҳим элементи сифатида ҳам қаралиши лозим [20].

Тадқиқот натижалари қуйидаги илмий хулосаларни шакллантириш имконини берди:

Инсон геноми ва геномга оид ахборот мазмунан ўзаро боғлиқ, аммо мустақил ҳуқуқий аҳамиятга эга бўлган категориялар ҳисобланади.

Геномга оид ахборот инсон геномининг шахсни иден-

тификация қилиш учун етарли бўлган қисми ҳақидаги кодланган маълумотлар йиғиндисидан иборат.

Қозоғистон Республикаси ва Россия Федерацияси қонунчилигида мазкур тушунчанинг ҳуқуқий модели нисбатан мукамал шаклланган.

Геномга оид ахборот ҳуқуқий табиатига кўра шахсга доир маълумотларнинг махсус тури бўлиб, биометрик маълумотлар категориясига киради.

Геномга оид ахборотнинг ҳуқуқий муҳофазаси инсон ҳуқуқлари, шахсий ҳаёт дахлсизлиги ва ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Миллий қонунчиликда «геномга оид ахборот» тушунчасини мустақил ҳуқуқий категория сифатида норматив жиҳатдан мустаҳкамлаш ҳамда уни йиғиш, сақлаш ва қайта ишлаш тартибини комплекс ҳуқуқий тартибга солиш мақсадга мувофиқ.

Геномга оид ахборотнинг ҳуқуқий мақомини аниқ белгилаш генетик идентификация технологияларидан инсон ҳуқуқларига мувофиқ ва самарали фойдаланишнинг муҳим ҳуқуқий кафолати ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Annas G.J. Genetic Privacy and the Rights of Individuals // New England Journal of Medicine. 1993. Vol. 329. P. 302–304.
2. Полная последовательность генома человека. // <https://www.biorxiv.org/content/10.1101/2021.05.26.445798v1.full>
3. Боринская С.А., Хуснутдинова Э.К. Этногеномика: история с географией. // Человек. 2002. № 1, С. 19
4. Human Genome Organisation (HUGO). Statement on Human Genomic Databases. London, 2002.
5. Бейсон Ж. Генетика : пер. с фр. М. : Атомиздат, 1976. С. 123.
6. Михеев В. С. Генетическая информация // Большая российская энциклопедия / отв. ред. С. Л. Кравец. 2016. URL: <https://bigenc.ru/biology/text/2350490>
7. Международная декларация о генетических данных человека. Электрон манба: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/genome_dec.shtml
8. Convention on Human Rights and Biomedicine (Oviedo Convention). Council of Europe. Oviedo, 1997.
9. Қозоғистон Республикасининг 2016 йил 30 декабрдаги “Дактилоскопик ва геном бўйича рўйхатга олиш тўғрисида”ги 40-VI ЗРК-сон қонуни Электрон манба: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1600000040>
10. Россия Федерациясининг 2008 йил 3 декабрдаги “Россия Федерациясида геном бўйича давлат рўйхатига олиш тўғрисида” 242-ФЗ-сон қонуни Электрон манба: <https://base.garant.ru/12163758/>
11. Озарбайжон Республикасининг 2018 йил 29 июндаги “Дактилоскопик ва геномга оид ахборотни давлат рўйхатига олиш тўғрисида”ги № 1197-VQ қонуни Электрон манба: <https://mia.gov.az/ru/legislation/1/view/46/>
12. Украина Республикасининг 2022 йил 8 июлдаги “Инсон геномига оид ахборотларни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида” 2391-IX-сон қонуни Электрон манба: https://online.budstandart.com/ua/catalog/doc-page.html?id_doc=105326
13. Рассолов И. М., Чубукова С. Г., Микурова И. В. Биометрия в контексте персональных данных и генетической информации: правовые проблемы // Lex russica. 2019. № 1. С. 114.
14. Andorno R. The Right Not to Know: An Autonomy Based Approach // Journal of Medical Ethics. 2004. Vol. 30. No. 5. P. 435–439.
15. Болтанова Е. С., Имекова М. П. Генетическая информация в системе объектов гражданских прав // Lex russica. 2019. № 6. С. 110.
16. Rothstein M.A. Genetic Information and Privacy: Legislative Approaches // Journal of Law, Medicine & Ethics. 2018. Vol. 46. P. 117–125.
17. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 июлдаги “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги қонуни Электрон манба: <https://lex.uz/docs/4396419>
18. Постановление ЕСПЧ от 27 августа 2015 г. «Дело «Паррилло (Parrillo) против Италии» (жалоба № 46470/11) // Прецеденты Европейского Суда по правам человека. 2015. № 12 (24)
19. European Court of Human Rights. Guide to Article 8 of the European Convention on Human Rights. Strasbourg, 2023.
20. Kaye D.H. Genetic Databases and Criminal Investigation // Journal of Law and Biosciences. 2019. Vol. 6. No. 1. P. 45–67.



Zuxriddin MUXAMMADALIYEV,

Namangan viloyati IIB xodimi, kapitan E-mail: zuxriddin.muxammadaliyev@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0007-6062-5490>

YANGI O‘ZBEKISTONDA “RAVON YO‘L” KONSEPSIYASI ASOSIDA YO‘L-TRANSPORT HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHDA IDORALARARO HAMKORLIKNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

(Xorijiy tajriba)

Annotatsiya: mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda idoralararo hamkorlikning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, zamonaviy holati tahlil etilgan va “Ravon yo‘l” konsepsiyasi asosida hamkorlikni yanada takomillashtirish yo‘llari ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Tadqiqot qiyosiy-huquqiy tahlil, anketalar so‘rovi (187 nafar respondent) va statistik ma‘lumotlar tahlili usullaridan foydalangan holda amalga oshirilgan. 2024-yilda O‘zbekistonda 9 364 ta yo‘l-transport hodisasi qayd etilgan bo‘lib, ularda 2 203 nafar kishi halok bo‘lgan. Nisbatan YTHlar soni kam bo‘lgan Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Yaponiya tajribasi asosida O‘zbekiston uchun to‘rt qatlamli idoralararo hamkorlik modeli va uchta yangi qonun loyihasi taklif etilgan. Maqolada birinchi marta O‘zbekiston uchun “Ravon yo‘l” konsepsiyasining huquqiy mazmuni belgilab berilgan va “Milliy Yo‘l Xavfsizligi Komissiyasi”ni tashkil etish asoslangan.

Kalit so‘zlar: idoralararo hamkorlik, yo‘l harakati xavfsizligi, “Ravon yo‘l” konsepsiyasi, “Vision Zero” konsepsiyasi, huquqiy islohotlar, Milliy Yo‘l Xavfsizligi Komissiyasi, raqamli platforma, KPI tizimi.

Аннотация: в данной статье анализируются правовые основы и современное состояние межведомственного сотрудничества в обеспечении безопасности дорожного движения в Новом Узбекистане, а также на научной основе разработаны пути дальнейшего совершенствования такого сотрудничества в рамках концепции “Ровная дорога”. Исследование проведено с применением методов сравнительно-правового анализа, анкетного опроса (187 респондентов) и анализа статистических данных. В 2024 году в Узбекистане зафиксировано 9 364 дорожно-транспортных происшествия, в результате которых погибли 2 203 человека. На основе опыта Швеции, Норвегии, Дании и Японии – стран с относительно низким уровнем дорожно-транспортных происшествий – для Узбекистана предложены четырёхуровневая модель межведомственного сотрудничества и три новых законопроекта. В статье впервые определено правовое содержание концепции “Ровная дорога” применительно к Узбекистану и обосновано создание “Национальной комиссии по безопасности дорожного движения”.

Ключевые слова: межведомственное сотрудничество, безопасность дорожного движения, концепция “Ровная дорога”, концепция “Vision Zero”, правовые реформы, Национальная комиссия по безопасности дорожного движения, цифровая платформа, система KPI.

Annotation: this article analyses the legal foundations and current state of interagency cooperation in road traffic safety in New Uzbekistan, and develops scientifically grounded ways of further improving such cooperation based on the “Smooth Road” concept. The study was conducted using comparative legal analysis, a questionnaire survey (187 respondents) and statistical data analysis. In 2024, a total of 9,364 road traffic accidents were recorded in Uzbekistan, resulting in 2,203 fatalities. Drawing on the experience of Sweden, Norway, Denmark and Japan – countries with comparatively low road traffic accident rates – a four-level interagency cooperation model and three new draft laws are proposed for Uzbekistan. For the first time, this article defines the legal content of the “Smooth Road” concept for Uzbekistan and substantiates the establishment of a “National Road Traffic Safety Commission”.

Key words: interagency cooperation, road traffic safety, “Smooth Road” concept, “Vision Zero” concept, legal reforms, National Road Traffic Safety Commission, digital platform, KPI system.

Kirish. Yo‘l-transport hodisalari (YTH) natijasida davlatning ijtimoiy, sog‘liqni saqlash va iqtisodiy jihatdan olib borayotgan siyosatiga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili 1,2 million kishi YTH

natijasida halok bo‘ladi, 50 milliondan ortiq kishi esa jarohat oladi¹.

O‘zbekistonda ayniqsa bu muammo jiddiy yondashuvni talab etib, 2024-yilda 9 364 ta YTH sodir

¹ World Health Organization. Global Status Report on Road Safety 2023. – Geneva: WHO, 2023. URL: <https://www.who.int/publications/i/item/9789241565684>



bo'lgan, ularda 2 203 nafar fuqaro hayotda ko'z yumgan. Kuniga hisoblaganda – bu o'rtacha 6 kishini tashkil etishi esa bu muammoning jiddiy ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2025-yil 9-iyul kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda bejizga: “Har to'rtinchi avariya bir kishi yoki kuniga o'rtacha olti kishi vafot etayotgani barchani qattiq tashvishga solishi kerak” deb ta'kidlamagan edilar. Ushbu so'zlar yo'l xavfsizligi muammosining nafaqat texnik, balki huquqiy, ijtimoiy va idoraviy yechimni talab qilishini yaqqol ko'rsatadi va qonunchilikda mavjud bo'shliqlarni tizimli ravishda to'ldirish zarurligini belgilaydi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda bitta idoraning harakati mutlaqo yetarli emas: muvaffaqiyat ko'p idoralarning muvofiqlashgan, huquqiy majburiy, institutsional hamkorligiga bog'liq.² Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-iyul kunidagi “2022 – 2026 yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan “Xavfsiz va ravon yo'l” umummilliy dasturini tasdiqlash to'g'risida” gi Qarori³ga asosan samarali ishlar tashkil etildi. Ushbu hujjatni yanada takomillashtirib, “Ravon yo'l” konsepsiyasi asosida O'zbekiston uchun yangi idoralararo hamkorlik modeli yaratish – bugunning

ilmiy va amaliy zarurati hisoblanadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda idoralararo hamkorlik bo'yicha bir nechta muhim yondashuvlar mavjud. Canoquena va King ning “Hukumat va jamoatchilik o'rtasida yo'l harakati xavfsizligini muvofiqlashtirish”⁴ – deb, nomlangan maqolasida OECD mamlakatlarida hukumat-jamiat yo'l xavfsizligi muvofiqlashuvini o'rganib, muvaffaqiyatli hamkorlik uchun yettita asosiy omilni aniqlagan: majburiy kelishuvlar, maqsadning yagonaligi, vazifalarning aniq taqsimoti, nizolarni hal etishga tayyorlik, barqaror hamkorlikni ta'minlash, birgalikda vaqt o'tkazish, muvofiqlashuvni kuchaytiruvchi institutlar.⁴

Finlandiyalik olimlar Alanko va Ruotsala (2022) “Vision Zero” falsafasini ko'p sektorli hamkorlik tashkil etishini isbotlagan⁵. Ularning xulosasiga ko'ra, hayot va sog'liqni boshqa ijtimoiy manfaatlar bilan almashtirib bo'lmaydi – ushbu tamoyil davlat siyosatining konstitutsiyaviy asosi bo'lishi lozim. Fransiyalik olim Vogel va boshqalar tomonidan esa 2015-yilda past daromadli mamlakatlardagi idoralararo hamkorlik muvaffaqiyatsizligining uch asosiy sababini ko'rsatgan: zaif yetakchilik, resurslarning notekis taqsimlanishi va muvofiqlashuv mexanizmlarining sustligi⁶.

O'zbekistonda yo'l harakati xavfsizligini tartibga

² Canoquena J., King M. Road Safety Coordination Between Government and Community // Journal of Road Safety. – 2024. – Vol. 35(3). – P. 53–65. – DOI: 10.33492/JRS-D-24-3-2337457

³ Qonunchilik hujжатлари bazasi, <https://lex.uz/ru/docs/6106551>

⁴ Canoquena J., King M. Road Safety Coordination Between Government and Community // Journal of Road Safety. – 2024. – Vol. 35(3). – P. 53–65. – DOI: 10.33492/JRS-D-24-3-2337457 Ibid.

⁵ Alanko T., Ruotsala R. A Multi-Perspective Framework of Vision Zero // Safety and Health at Work. – 2022. – Vol. 13(3). – P. 372–375. – DOI: 10.1016/j.shaw.2022.05.001

⁶ Vogel T. et al. An organizational analysis of road traffic crash prevention // BMC Research Notes. – 2015. – Vol. 8. – P. 473. – DOI: 10.1186/s13104-015-1472-6

soluvchi asosiy hujjatlar quyidagilar: 2024-yil 19-yanvarda qabul qilingan “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi 900-sonli Qonun⁷, Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi⁸, “2022-2026-yillarga mo‘njallangan Xavfsiz va qulay yo‘l” dasturi⁹ va 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-sonli Qarori¹⁰ bo‘lib, ushbu hujjatlar idoralararo hamkorlikni umumiy tamoyil sifatida belgilaydi. Ushbu hujjatlarni o‘rganish jarayonida quyidagi tizimli huquqiy bo‘shliqlar mavjudligi aniqlandi:

Qonunda muvofiqlashtiruv markaziy organi belgilanmagan (IIV, Transport, FVV o‘rtasida mas’uliyat noaniq taqsimlangan);

Hududiy darajada hamkorlik mexanizmlari yetarli emasligi (Viloyat, tuman darajasida muvofiqlashuv yetarli darajada emas);

Dasturlar huquqiy majburiyat yuklamaydi (Ijro nazorati va hisobot berish tizimi zaif);

“Vision Zero” normalari milliy qonunchilikka to‘liq kiritilmagan (Uzoq muddatli maqsadlar noaniq);

Milliy inson huquqlari markazi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan maxsus NHH qabul qilmagan (Profilaktikada institutsional bo‘shliq),

Yagona raqamli axborot tizimi mavjud emasligi (Idoralar o‘rtasida real vaqt rejimida hamkorlik imkoni cheklangan).

Tadqiqot jarayonida xorijiy davlatlarning statistik ko‘rsatkichlari tahlil etildi va YTHlarning oldini olish uchun ushbu davlatlarning qonunchiligi o‘rganildi.

Mamlakat	Asosiy NHH	Muvofiqlashtiruvchi organ	Huquqiy asos	Natija
Shvetsiya	“Vision Zero” (1997)	Milliy Yo‘l Xavfsizligi Agentligi + 3 ta maslahat kengashi	Qonunchilik darajasida majburiy	Halokat 80% kamaydi
Norvegiya	“Safe System” dasturi	Statistik markazlashgan boshqaruv + viloyat kengashlari	Federal qonun	Halokat 75% kamaydi
Daniya	“Xavfsiz Daniya” dasturi	Ko‘p vazirliklararo komissiya	5 yillik majburiy dastur	Halokat 65% kamaydi
Yaponiya	Koban + jamiyat hamkorligi	Politsiya, ta’lim va mahalla birgaligi	Maxsus qonun (1970)	YTH 60% kamaydi

Ushbu tahlil uchta umumiy muvaffaqiyat omilini aniqlab berdi: 1) maxsus muvofiqlashtiruv organ yoki kengashning mavjudligi; 2) huquqiy jihatdan majburiy idoralararo kelishuvlarning yo‘lga qo‘yilgani; 3) yagona raqamli axborot tizimining mavjudligi.

Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi, yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatini strategik va tizimli asosda rivojlantirish uchun muhim huquqiy islohotlar yo‘nalishini belgilab beradi.

7 <https://lex.uz/uz/docs/-6764454>

8 <https://lex.uz/uz/docs/-5749291>

9 <https://lex.uz/docs/-6106551>

10 <https://lex.uz/uz/docs/-7973611>

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Global Status Report on Road Safety 2023. – Geneva: WHO, 2023. URL: <https://www.who.int/publications/i/item/9789241565684>

2. Canoquena J., King M. Road Safety Coordination Between Government and Community // Journal of Road Safety. – 2024. – Vol. 35(3). – P. 53–65. – DOI: 10.33492/JRS-D-24-3-2337457

3. Qonunchilik hujjatlari bazasi, <https://lex.uz/ru/docs/6106551>

4. Canoquena J., King M. Road Safety Coordination Between Government and Community // Journal of Road Safety. – 2024. – Vol. 35(3). – P. 53–65. – DOI: 10.33492/JRS-D-24-3-2337457 Ibid.

5. Alanko T., Ruotsala R. A Multi-Perspective Framework of Vision Zero // Safety and Health at Work. – 2022. – Vol. 13(3). – P. 372–375. – DOI: 10.1016/j.shaw.2022.05.001

6. Vogel T. et al. An organizational analysis of road traffic crash prevention // BMC Research Notes. – 2015. – Vol. – P. 473. – DOI: 10.1186/s13104-015-1472-6

7. Qonunchilik hujjatlari bazasi <https://lex.uz/uz/docs/-6764454>

8. Qonunchilik hujjatlari bazasi <https://lex.uz/uz/docs/-5749291>

9. Qonunchilik hujjatlari bazasi <https://lex.uz/docs/-6106551>

10. Qonunchilik hujjatlari bazasi <https://lex.uz/uz/docs/-7973611>

Ulug'bek MURTAZAYEV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-0217-4023>;
E-mail: ulugbeklawyer@mail.ru

TOVAR BELGISI, FIRMA NOMI VA PATENT HUQUQLARINI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: maqolada Jinoyat kodeksining 149² va 149³-moddalari asosida tovar belgisi, firma nomi hamda patent huquqlarini jinoiy-huquqiy himoya qilishning chegaralari tahlil qilinadi. Kontrafakt mahsulotlar, raqamli muhitdagi buzilishlar va patent nizolarida jinoyat huquqini so'nggi chora sifatida qo'llash zarurati asoslanadi. Takliflar qasd, tijorat ko'lam, zarar miqdori va iste'molchi xavfi mezonlarini aniqlashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tovar belgisi, firma nomi, patent, kontrafakt, kiber-skvotting, jinoiy javobgarlik, raqamli muhit, TRIPS.

Аннотация: в статье кратко анализируются пределы уголовно-правовой охраны товарного знака, фирменного наименования и патентных прав. Обоснованы критерии разграничения гражданско-правовой, административной и уголовной ответственности.

Ключевые слова: товарный знак, патент, контрафакт, уголовная ответственность, цифровая среда.

Annotation: the article examines criminal-law protection of trademarks, trade names and patent rights, emphasizing proportionality, consumer safety and the need to reserve criminal liability for intentional, commercial-scale infringements.

Key words: trademark, patent, counterfeiting, criminal liability, digital environment.

Kirish. Intellektual mulk obyektlari bozor iqtisodiyotida faqat mulkiy manfaatni emas, balki raqobat halolligi, iste'molchi ishonchi va innovatsion rivojlanish barqarorligini ham ta'minlaydi. Tovar belgisi mahsulot yoki xizmat manbasini ko'rsatadi, firma nomi yuridik shaxsni individuallashtiradi, patent esa texnik yechim yoki sanoat namunasiga vaqtinchalik mutlaq huquq beradi. Shu sababli mazkur obyektlarga tajovuzlarning ijtimoiy xavflilik darajasi bir xil emas va ularni jinoyat-huquqiy baholashda differensial yondashuv zarur.




O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 8-avgustdagi O'RQ-1080-son Qonuni intellektual mulk sohasidagi jinoiy javobgarlikni yangilab, Jinoyat kodeksida tovar belgisi, firma nomi va patent huquqlariga oid maxsus normalarni kuchaytirdi [4]. Bu islohot TRIPS kelishuvining tijorat miqyosidagi qasdli tovar belgisi qalbakilashtirish uchun jinoiy sanksiyalar belgilash haqidagi talablariga hamohangdir [5]. Biroq patent buzilishlarini jinoiylashtirish masalasida xalqaro amaliyot bir xil emas, chunki patent nizolari ko'pincha murakkab texnik va tijoriy munosabatlardan kelib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tovar belgisi va firma nomini muhofaza qilishning asosiy vazifasi bozor ishtirokchilarini chalg'itmaslik va mahsulot kelib chiqishi to'g'risida aniq axborot berishdan iborat. "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonun hamda "Firma nomlari to'g'risida"gi Qonun ushbu obyektlarga bo'lgan mutlaq huquqlarning huquqiy asosini belgilaydi [1; 2]. Shu bilan birga, har qanday o'xshashlik jinoyat tarkibini anglatmaydi; bunda qasd, tijorat maqsadi, iste'molchining chalg'ishi va zarar xavfi aniqlanishi kerak.

I.D.Manta tovar belgisi va mualliflik huquqi buzilishlari jinoiy javobgarlikka tortilishi ko'proq ommaviy manfaat bilan bog'liqligini, patent buzilishlari esa aksariyat hollarda fuqarolik-huquqiy nizo sifatida ko'rinishini ta'kidlaydi [6]. M.P.McKenna esa jinoiy ta'sir faqat og'ir, qasdli va tijorat ko'lamidagi holatlarga qaratilishi lozimligini asoslaydi [7]. Ushbu yondashuv 149²-modda bo'yicha kontrafakt



mahsulotlarni baholashda muhim mezon bo'la oladi.

Patent huquqi masalasida O'zbekiston qonunchiligi TRIPS minimal talablaridan kengroq himoya modelini tanlagan. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun patent obyektlari va ularning himoya hajmini belgilaydi [3]. A.A.Yuldashev patent obyektlarini farqlashda texnik yechim, yangilik, ijodiy daraja va sanoatda qo'llash mezonlariga e'tibor qaratadi [8]. Shu bois 149³-modda qo'llanilganda oddiy tashqi o'xshashlik emas, aynan patent formulasi va himoya hajmi asosiy isbotlash mezonini bo'lishi kerak.

Natija va muhokamalar.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, 149²-moddaning markazida tovar belgisi yoki firma nomidan qonunga xilof foydalanish orqali bozor ishonchini buzish xavfi turadi. Qalbaki tovar belgisi iste'molchini mahsulot manbasi, sifati va ishlab chiqaruvchisi haqida adashtiradi. Ayniqsa dori vositalari, oziq-ovqat, bolalar mahsulotlari, texnik qurilmalar va avtomobil ehtiyot qismlarida kontrafakt mahsulot inson hayoti va sog'lig'iga real xavf tug'dirishi mumkin. OECD/EUIPO hisobotlari kontrafakt savdo global iqtisodiyot uchun jiddiy muammo bo'lib qolayotganini ko'rsatadi [10].

Shu sababli tovar belgisi bo'yicha jinoyat tarkibini aniqlashda faqat huquq egasiga yetkazilgan zarar miqdori bilan cheklanib bo'lmaydi. Qilmishning qasd bilan sodir etilgani, tovarning tijorat ko'lamida muomalaga chiqarilgani, iste'molchining chalg'ishi ehtimoli va mahsulotning xavflilik darajasi birgalikda baholanishi lozim. Mayda, texnik yoki real chalg'ish xavfi bo'lmagan holatlar ma'muriy yoxud fuqarolik-huquqiy vositalar orqali hal etilishi maqsadga muvofiq.

"Adashtirib yuborish darajasida o'xshash belgi" tushunchasi alohida ehtiyotkor talqinni talab qiladi. Belgilarning vizual, fonetik yoki semantik o'xshashligi o'z-o'zidan jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi. Bunda tovarlar turi, savdo kanallari, auditoriya, original brendning bozordagi obro'si va huquqbuzarning maqsadi aniqlanishi zarur. Bir xil yoki o'xshash nomlarning mutlaqo boshqa sohalarda ishlatilishi jinoyat sifatida baholanmasligi kerak.

Firma nomi bilan bog'liq nizolarda ham xuddi shunday yondashuv zarur. Firma nomi yuridik shaxsni identifikatsiya qiladi, tovar belgisi esa mahsulot yoki xizmatni ajratib turadi. Amaliyotda bitta nom bir vaqtning o'zida firma nomi, domen nomi va tovar belgisi sifatida qo'llanishi mumkin. Bunday kolliziyada huquqning vujudga kelgan vaqti, ro'yxatdan o'tgan sohasi, ustuvorlik, real foydalanish va iste'molchining chalg'ishi ehtimoli kompleks tekshiriladi.

Raqamli muhit mazkur jinoyatlarning yangi ko'rinishlarini vujudga keltirmoqda. Internet savdo platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va domen nomlari orqali kontrafakt mahsulotlarni taklif qilish an'anaviy savdoga qaraganda tezroq tarqaladi. Kiber-skvotting, ya'ni taniqli tovar belgisiga o'xshash domenni ro'yxatdan o'tkazib foyda olish amaliyoti ham fuqarolik nizosidan jinoiy baholash darajasiga ko'tarilishi mumkin. Buning uchun qasd, tizimlilik, iste'molchini aldash va tijorat foydasi isbotlanishi shart.

149³-modda bo'yicha patent huquqlarini jinoiy himoya qilish esa yanada murakkab masaladir. Patent buzilishida zarar tashqi o'xshashlikdan emas, balki texnik belgilar, patent formulasi va himoya hajmidan kelib chiqadi. Shu

sababli patentlangan mahsulotga o'xshash mahsulot ishlab chiqarishning o'zi jinoyat tarkibi uchun yetarli emas. Ruqsatsiz qo'llangan muhim belgilar, qasd, tijorat maqsadi va zarar miqdori maxsus texnik ekspertiza orqali aniqlanishi lozim.

P.K.Yu TRIPS kelishuvi patent buzilishlarini jinoiylashtirishni majburiy talab qilmasligini ko'rsatadi [9]. Demak, O'zbekistonning patent huquqlarini jinoiy javobgarlik doirasiga kiritishi milliy siyosiy-huquqiy tanlovdir. Bu kuchli himoya signalini bersa-da, ortiqcha jinoiylashtirish innovatsion subyektlarni ehtiyotkorlikka majbur qilib, qonuniy texnik izlanishlar va sog'lom raqobatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bois patent nizolarida jinoyat-huquqiy ta'sir so'nggi chora sifatida qo'llanishi kerak. Avvalo fuqarolik-huquqiy da'vo, litsenziya muzokarasi, mediatsiya yoki arbitraj kabi vositalar ishga solinishi maqsadga muvofiq. Jinoiy javobgarlik esa faqat ochiq-oydin qasd, tijorat miqyosi, takroriylik, katta zarar yoki huquq egasining ogohlantirishiga qaramay qilmishni davom ettirish holatlarida qo'llanishi lozim.

Umuman, 149² va 149³-moddalar bo'yicha huquqni qo'llashda to'rt mezon asosiy ahamiyatga ega: qasdning mavjudligi, tijorat ko'lam, zarar yoki real xavf darajasi, qilmishning takroriyliigi. Ushbu mezonlar sud-tergov amaliyotida aniq qo'llanmasa, bir xil mazmundagi qilmishlar turlicha baholanishi, fuqarolik nizolari esa asossiz ravishda jinoyat ishiga aylanishi mumkin.

Ma'muriy va jinoiy javobgarlik chegarasini amaliyotda aniqlash uchun zararning faqat puldagi ifodasi emas, balki huquqbuzarlikning iqtisodiy modeli ham tekshirilishi lozim. Masalan, bir martalik, kichik hajmli va iste'molchiga real xavf tug'dirmaydigan holatlarda ma'muriy choralar yetarli bo'lishi mumkin. Aksincha, maxsus ishlab chiqarish

uskunalari, muntazam savdo kanallari, qalbaki qadoqlar, ombor zaxirasi, reklama va onlayn to'lov tizimlari mavjud bo'lsa, qilmish tijorat ko'lamida sodir etilgan deb baholanishi uchun asos kuchayadi. Bunday yondashuv jinoiy huquqni keraksiz kengaytirishdan saqlaydi va kontrafakt biznesga nisbatan aniq javobni ta'minlaydi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149² va 149³-moddalari intellektual mulk obyektlarini jinoiy-huquqiy himoya qilishda muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur normalar tovar belgisi, firma nomi va patent huquqlarining huquqiy tabiatini inobatga olgan holda qo'llanilgandagina samarali bo'ladi. Tovar belgisi va firma nomida asosiy e'tibor iste'molchi ishonchi, bozor halolligi va kontrafakt mahsulot xavfiga qaratilishi kerak. Patent huquqida esa texnik ekspertiza, patent formulasi va innovatsion faollikka ta'sir masalalari ustuvor ahamiyatga ega.

Maqola yakunida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, tovar belgisi va firma nomi bo'yicha kontrafaktni aniqlashning maxsus tergov-metodik qo'llanmasini ishlab chiqish; ikkinchidan, raqamli platformalar va domen nomlari orqali sodir etiladigan buzilishlar uchun dalillarni saqlash va tezkor bloklash tartibini belgilash; uchinchidan, patent huquqi buzilishlari bo'yicha texnik ekspertiza standartlarini takomillashtirish; to'rtinchidan, ma'muriy va jinoiy javobgarlik chegarasini qasd, zarar miqdori, tijorat ko'lam va takroriylik mezonlari asosida aniq belgilash; beshinchidan, patent nizolarida mediatsiya va arbitrajdan foydalanishni kengaytirish zarur.

Shunday qilib, tovar belgisi, firma nomi va patent huquqlarini jinoiy-huquqiy muhofaza qilish huquq egasining xususiy manfaatini mutlaq himoya qilish vositasi emas, balki iste'molchi ishonchi, innovatsion muhit va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi huquqiy mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi 267-II-son "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-24925>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 18-sentabrdagi O'RQ-51-son "Firma nomlari to'g'risida"gi Qonuni. URL: <https://www.lex.uz/docs/-1055517>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi 397-II-son "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-76671>.
4. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 8-avgustdagi O'RQ-1080-son Qonuni "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida". URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-7675869>.
5. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS). Annex 1C of the Marrakesh Agreement. 1994. Article 61. URL: https://www.wto.org/english/tratop_e/trips_e/trips_e.htm.
6. Manta I.D. The Puzzle of Criminal Sanctions for Intellectual Property Infringement // Harvard Journal of Law & Technology. 2011. Vol. 24, No. 2. P. 469–518.
7. McKenna M.P. Criminal Trademark Enforcement and the Problem of Over-Criminalization // Cardozo Arts & Entertainment Law Journal. 2012. Vol. 30, No. 1. P. 1–45.
8. Yuldashev A.A. Patent huquqi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYU, 2025. 72 b. URL: <https://library.tsul.uz/uz/books/21443>.
9. Yu P.K. TRIPS Enforcement and Developing Countries // American University International Law Review. 2011. Vol. 26, No. 3. P. 927–975.
10. OECD/EUIPO. Mapping Global Trade in Fakes 2025: Global Trends and Enforcement Challenges. Paris: OECD Publishing, 2025. DOI: <https://doi.org/10.1787/94d3b29f-en>.

F.B.MATYAKUBOVA,
IIV Malaka oshirish instituti
Maxsus kasbiy fanlar sikli o'qituvchisi, mayor

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI TAYYORLASHDA TA'LIM VA TARBIYA UYG'UNLIGI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA TENDENSIYALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada ichki ishlar organlari tizimida kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy mahorati va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirishda ta'lim va tarbiya jarayonining o'zaro uyg'unligi 2026-yilda amalga oshirilayotgan islohotlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada "xalqchil huquq-tartibot organlari" konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, aholi murojaatlari bilan ishlashning psixologik jihatlarini hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida IIO ta'limini transformatsiya qilish masalalari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: *ichki ishlar organlari, kasbiy ta'lim, milliy tarbiya modeli, raqamlashtirish, kriminogen prognoz, aholi bilan muloqot, psixologik tayyorgarlik.*

Annotation: this article analyzes the mutual harmony of the education and training process in raising the professional skills and spiritual-moral qualities of personnel within the system of internal affairs bodies (IAB) through the prism of the 2026 reforms. The paper scientifically explores the implementation of the concept of "people-friendly law enforcement agencies", the psychological aspects of handling public appeals, and the transformation of IAB education within the framework of the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy.

Key words: *internal affairs bodies, professional education, national training model, digitalization, criminogenic forecasting, communication with the public, psychological preparation.*

Аннотация: в данной статье через призму реформ 2026 года анализируется взаимосвязь процессов обучения и воспитания в повышении профессионального мастерства и духовно-нравственных качеств кадров в системе органов внутренних дел (ОВД). В работе научно освещены вопросы претворения в жизнь концепции "народных органов правопорядка", психологические аспекты работы с обращениями населения, а также трансформации образования в ОВД в рамках стратегии "Сифровой Узбекистан – 2030".

Ключевые слова: *органы внутренних дел, профессиональное образование, национальная модель воспитания, сифровизация, криминогенный прогноз, диалог с населением, психологическая подготовка.*

Globalashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan 2026-yilda jamiyatda xavfsizlik va huquq-tartibotni ta'minlash tizimi tubdan yangilanmoqda. Ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning bosh omili – bu faqatgina jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodim emas, balki yuqori intellektual salohiyatli, raqamli texnologiyalarni mukammal egallagan va ma'naviy barkamol kadrlarni shakllantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirishga oid so'nggi topshiriqlari doirasida IIO xodimlarining fuqarolar bilan ishlash madaniyatini tizimli ravishda tarbiyalash va ularda zamonaviy psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish davr talabiga aylandi. Shu bois, IIOda ta'lim va tarbiya masalasini zamonaviy tendensiyalar asosida tadqiq etish yuqori ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga quyidagi ilmiy-texnikaviy yangiliklar joriy etilmoqda:

– kriminogen vaziyatni prognoz qilish, ya'ni kursant va tinglovchilarga hududlardagi kriminogen barometrni sun'iy intellekt va geoinformatsion tizimlar orqali tahlil qilish o'rgatilmoqda.

– simulyatsion keyslar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilgan maxsus o'quv kurslarida xodimlarning stressga chidamliligi va aholi muammolarini manzilli hal etish ko'nikmalari real simulyatsion vaziyatlar orqali baholanmoqda.

2026-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 34-sonli qarori¹ bilan tasdiqlangan "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturi" IIO tizimidagi idoraviy ta'lim muassasalari uchun ham dasturulamal bo'ldi. Ushbu dastur doirasida ta'lim tizimida:

– "milliy tarbiya modeli"da asosiy maqsad yosh xodimlarda buyuk ajdodlar merosiga tayangan holda burch va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish;

– "kelajak soati" darslarida har dushanba kuni o'tiladigan, maxsus elektron platforma (milliytarbiya.uz) materiallariga asoslangan ma'naviy-ma'rifiy darslarni o'tkazilishini ta'minlashdan iborat.

Ta'limning milliy modeli – O'zbekiston Respublikasida

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvar kunidagi 34-son "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.



ta'lim tizimini yangilangan sog'lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta'lim tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual, ma'naviy va axloqiy saviyasiga ko'ra rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish bo'yicha belgilangan nazariy-metodologik, amaliy-pedagogik yondashuvlar majmui hisoblanadi. Ta'limning milliy modelida ma'naviy intellektual jihatdan barkamol shaxsning o'z ijodiy qobiliyatini to'la namoyon etishini ta'minlash ko'zda tutiladi.

Bu model jahon ta'lim tizimi tajribasida mutloq yangilik bo'lib, shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. singari beshta tarkibiy qismdan iborat. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida milliy modelning tarkibiy qismlari ta'riflanib, ularning asosiy vazifalari belgilab berilgan. Jumladan, shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Ta'limning milliy modelining o'ziga xosligi tarkibiy qismning boshlanishidayoq yaqqol namoyon bo'ladi. Unda shaxsga ta'limning iste'molchisi, ya'ni obyektigina emas, balki uni amalga oshiruvchi, ya'ni ta'lim jarayonining subyekti sifatida ham qaraladi. Bu hol shaxsni ta'limning iste'molchisidan bu jarayonning ijrochisiga aylantiradi, uning faolligini oshirib, rivojlanishini tezlashtiradi.

Davlat va jamiyat – ta'lim hamda kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi, kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafilidir. Ta'limning milliy modeliga ko'ra, davlat va jamiyat o'z zimmasiga kadrlar tayyorlash ishini tashkil etish, ta'lim jarayonini nazorat qilish hamda

tayyorlangan mutaxassislar faoliyatini yo'lga qo'yish kafolatini oladi.

Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat kursatish muhitini o'z ichiga oladi. Bu model shaxsning kamoloti umr bo'yi davom etadigan uzluksiz jarayon ekanligiga asoslanadi. Shuning uchun ham ta'lim tizimlarining barkamol insonni shakllantirishda ishtirok etishi lozim bo'lgan barcha bo'g'inlar faoliyati uzviy va uzluksiz bo'lishi ko'zda tutiladi. Ta'limning muayyan bosqichida biror shaxsda shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar miqdori, tartibi hamda bajarilish jarayoni ayni shu uzluksiz ta'lim tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'ladi.

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi va ulardan foydalanadi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqadi. Ta'limning milliy modelining bu tarkibiy qismiga Kadrlar tayyorlash milliy dasturida alohida ahamiyat berilgan. Chunki malakali mutaxassislarni tayyorlashda fan yutuqlaridan foydalanilganidek, yuqori malakali mutaxassislar ishtirokisiz fanning rivojlanishi ham mumkin emas. Demak, fan bir vaqtning o'zida tayyorlovchilik, iste'molchilik, rivojlantiruvchilik vazifalarini bajaradi.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi bo'lib, ishlab chiqarish "milliy tarbiya modeli"ning eng asosiy qismlaridan biridir. Xalq



xo'jaligining muayyan sohasi uchun zarur bo'lgan kadrlar miqdori, ularni tayyorlashda tayanilishi lozim bo'lgan iqtisodiy va texnologik asoslar aynan ishlab chiqarish tomonidan belgilanadi. Binobarin, jamiyatning moddiy boyliklari ishlab chiqarish jarayonida yaratilgani uchun u kadrlar tayyorlash tizimining moliyaviy va moddiy-texnikaviy ta'minotini ham amalga oshiruvchi sanaladi.

"Milliy tarbiya modeli"da kadrlar tayyorlash borasida xalqimizga xos milliy xususiyatlar maksimal darajada hisobga olinishi taqozo etiladi.

Shuningdek, unda barkamol shaxsni shakllantirish hamda uning aqliy, kasbiy va ma'naviy imkoniyatlarini eng samarali yo'sinda ishga solish yo'llari aniq hisobga olingan hamda shaxsda shakllantirilishi zarur bo'lgan kasbiy va ma'naviy sifatlarning uyg'unligiga alohida e'tibor berilgan.

"Kelajak soati" darslari uchun milliy kontentlarni ishlab chiqish jarayonlariga, shuningdek, "oilal – mahalla – ta'lim tashkiloti" hamkorlik mexanizmi asosida ta'lim tashkilotlarida kitobxonlik kechalari hamda madaniy uchrashuvlarni tashkil etishda taniqli teatr va kino aktyorlari, faol jamoatchilik vakillari, shoirilar hamda yozuvchilarni jalb etish orqali amalga oshirilib, namunaviy ish rejasi, zarur qo'llanma va ko'rgazmali vositalar to'plami, ssenariylar, matnli, audio, videokontent mahsulotlar tayyorlanadi.

2026-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 34-sonli qarori²ga asosan IIV tizimiga ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan "Vatan tayanchi" harakati a'zolarining harbiy-vatanparvarlik

forumini tashkil etish hamda respublikadagi har bir tuman (shahar)da faoliyati yo'lga qo'yilgan "Jasorat maktabi" o'quvchilari o'rtasida ikki bosqichdan iborat "Jasorat uchqunlari" harbiy-vatanparvarlik va sport musobaqasini o'tkazish vazifalari yuklatilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida xizmatga qabul qilish jarayonlari ham takomillashtirilmoqda.

Ichki ishlar vazirligining tegishli huquqiy-normativ hujjatlari asosida ichki ishlar organlariga xizmatga nomzodlarni tanlab olish tadbirlari yanada shaffoflashtirildi. Xizmatga yangi kirgan xodimlarning kasbiy deformatsiyaga, ya'ni salbiy psixologik o'zgarishlarga uchramasligi uchun psixologik xizmat va "Ustoz-shogird" instituti faoliyati yangi metodologik qo'llanmalar bilan ta'minlandi.

Shuningdek, 2026-yilgi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli platformalar orqali aholi murojaatlarini qabul qilish va ularni psixologik deeskalatsiya, ya'ni keskinlikni yumshatish usullari bilan hal etish xodim va fuqaro o'rtasidagi nizoli vaziyatlarni kelib chiqishini oldini olishga xizmat qilmoqda.

IIOda ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish borasida ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar va so'nggi tendensiyalar asosida quyidagi ilmiy tavsiyalar ilgari suriladi:

- "raqamli huquqlar" konsepsiyasini joriy etish, ya'ni 2026–2029-yillarga mo'ljallangan strategik rejalarga muvofiq, xodimlarga kiberhududda inson huquqlarini himoya qilish metodikasini o'rgatish;

- aholi bilan qayta aloqa tizimini baholash, ya'ni

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvar kunidagi 34-son "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

xodimlarning ta'lim darajasi va muomala madaniyatini fuqarolarning bevosita onlayn reytingli baholash tizimi bilan bog'lash;

– kompetensiyaviy yondashuv, ya'ni taktik va yuridik tayyorgarlik mashg'ulotlarini raqamli integratsiyalashgan situatsion markazlarda amaliy keyslar yordamida o'tish ulushini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-mart kunidagi "O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 91-son qaror³ining 1-ilovasida belgilangan O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 6-bandiga asosan Ichki ishlar vazirligi tomonidan "Inson huquqlari: xalqaro standartlar va milliy qonunchilik" mavzusida huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha profilaktika inspektorlari uchun seminar-treninglar tashkil qilish 2026-yil maydan boshlab doimiy ravishda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Bola huquqlari bo'yicha vakil bilan hamkorlikda tashkil qilinadi.

Shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari va Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim tashkilotlarida ta'lim olayotgan kursantlar va talabalar, malaka oshirish tinglovchilari uchun "Inson huquqlari" o'quv dasturini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda amalga oshirish vazifasi IIV Akademiyasi zimmasiga yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr kunidagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son farmoni⁴dagi 1-ilovasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasi berilgan.

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-mart kunidagi "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 91-son qarori.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr kunidagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son farmoni.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr kunidagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvar kunidagi 34-son "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-mart kunidagi "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 91-son qarori.

4. "IIV Akademiyasida ichki ishlar organlarida raqamlashtirish jarayonlariga bag'ishlangan taqdimot materiallari", 2026-yil may oyi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son farmonining ilovasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida 2020-2022-yillarda Respublika hududlarini raqamli transformatsiya qilish dasturining Axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish qismida IIV tizimiga "Mahalla" yagona axborot tizimini hududda joriy etish vazifasi yuklatilgan.

Mazkur farmonning 25-ilovasida "Elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning 37-bandida IIV tizimiga tegishli vazifalar yuklatilgan, yani Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida quyidagi imkoniyatlarni joriy etish:

– avtotransport vositalarini onlayn ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza yuborish, ro'yxatga olinganlik haqida ma'lumot olish, davlat raqami va texnik pasportini o'zgartirishni so'rash, avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga ruxsatnoma berish;

– haydovchilik guvohnomasini olish, almashtirish, imtihondan o'tish uchun elektron navbatga turish va onlayn to'lovni amalga oshirish imkoniyatini taqdim etish;

– identifikatsiya kartasini (ID-karta) olish uchun murojaat qilish;

– fuqarolikka qabul qilish, tiklash, chiqish va uni yo'qotish xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish;

– ichki ishlar organlariga, shu jumladan o'g'irlik, mol-mulkni yo'qotish, tahdidli chaqiriqlar va tazyiqlar holatlarida ariza berish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 2026-yilgi islohotlar ichki ishlar organlarida ta'lim va tarbiya tizimi faqatgina ichki idoraviy masala emas, balki davlatning umumiy intellektual va ma'naviy xavfsizlik siyosatining uzviy qismi ekanligini ko'rsatmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda yangi Milliy tarbiya modelining ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi – huquq-tartibot organlarini jamiyatning chinakam ko'makchisiga va qonun ustuvorligining mustahkam kafolatiga aylantirishga xizmat qiladi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

AXBOROTNOMASI

**Ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy va
siyosiy-huquqiy jurnal**

№ 3 (19) 2026



